

ILMIY-TADQIQOT ISHLARIGA DAVLAT BUYURTMASI ASOSIDA
ILMIY LOYIHANI BAJARISH TO'G'RSIDA
SHARTNOMA
ALM-202403110250-son

2024-yil "1"- may

Toshkent sh.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi (keyingi o'rinlarda — Buyurtmachi) nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor **Rajabbayev Sharof Raximberdiyevich** bir tarafdin, loyiha rahbari **Ishtayev Javlon Mavlonboyevich** ikkinchi tarafdin, Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti (keyingi o'rinlarda — Ijrochi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor **Mirjamolov Mexriddin Xayriddinovich** uchinchi tarafdin, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Moliyalashtiruvchi) nomidan Nizom asosida ish yurituvchi Ijro etuvchi direktor v.v.b. **Tavakalov Jonibek Tavakalovich** to'rtinchi tarafdin, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ilm-fan va innovatsiyalar kengashining 2024-yil 11-martdagi 2-son bayoni hamda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 2-apreldagi 107-son buyrug'iga muvofiq taraflar o'rtasida mazkur shartnoma tuzildi.

I. Shartnoma predmeti

1. Mazkur shartnoma bo'yicha Ijrochi va loyiha rahbari Buyurtmachining topshirig'iga binoan mazkur shartnomada belgilangan **"Sportchilarning psixologik pasportini shakllantirish tizimini ishlab chiqish"** nomli amaliy tadqiqot loyihasini bajarish va uning natijasini Buyurtmachiga shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish, Moliyalashtiruvchi esa moliyalashtirish majburiyatini oladi.

2. Loyiha bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar va ularni bajarish muddatlari hamda bajarilgan ishlar bo'yicha taqdim etiladigan hisobot shakllari ushbu shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan kalendar rejaga asosan belgilanadi.

II. Shartnomaning moliyaviy hajmi va moliyalashtirish tartibi

3. Moliyalashtiruvchi tarafdin loyiha umumiy moliyalashtirish hajmi **1 293 592 000 (bir milliard ikki yuz to'qson uch million besh yuz to'qson ikki ming)** so'mni tashkil etadi. Shundan loyiha 1-yilida bajariladigan ishlar uchun **957 418 000 (to'qqiz yuz ellik yetti million to'rt yuz o'n sakkiz ming)** so'm moliyalashtiriladi. Loyiha mazkur shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

4. Loyihaga ajratiladigan mablag'ning 95 foizi tadqiqot davri mobaynida, loyihani amalga oshirishda xarajatlarni qoplash uchun ajratiladi. Loyihaga ajratiladigan mablag'ning qolgan 5 foizi loyiha natijalari Buyurtmachi tomonidan qabul qilinganidan so'ng ajratiladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlariga muvofiq ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar miqdori oshirilganda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan indeksatsiya mablag'i ajratilsa, loyiha umumiy moliyalashtirish hajmi o'zgarishi mumkin.

III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

6. Buyurtmachining huquqlari:

loyiha doirasida bajarilayotgan ishlarni va ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanayotganligini monitoring qilish, zarur hollarda joyiga chiqqan holda;

loyihani amalga oshirish natijalariga oid ma'lumotlarni, ilmiy va moliyaviy hisobotlarni Ijrochidan talab qilish;

Ijrochi va Loyiha rahbari bilan kelishilgan holda ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Mazkur shartnoma shartlari Ijrochi va Loyiha rahbari tarafidan bajarilmaganda yoki tegishli darajada bajarilmaganda ushbu loyihani moliyalashtirishni to'xtatib turish yoki to'xtatish to'g'risida qaror (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma) qabul qilish, shuningdek, shartnomani bir taraflama bekor qilish.

7. Ijrochining huquqlari:

Buyurtmachidan loyihani ijrosiga oid barcha axborot va ma'lumotlarni so'rab olish; loyiha doirasida ajratilgan mablag'larni o'z muddatida moliyalashtirilishini talab qilish.

8. Loyiha rahbarining huquqlari:

Ijrochidan loyihani ijrosiga oid barcha zarur axborot va ma'lumotlarni so'rab olish; loyiha doirasidagi ishlarni bajarish uchun mablag'larni o'z vaqtida moliyalashtirilishini talab qilish.

9. Moliyalashtiruvchining huquqlari:

Ijrochi tashkilot tarafidan davriy moliyaviy hisobotlar belgilangan muddatlarda topshirilmagan taqdirda Buyurtmachini ogohlantirgan holda loyihani moliyalashtirishni to'xtatib turish.

10. Buyurtmachining majburiyatlari:

Ijrochi tarafidan taqdim etilgan shartnoma, xarajatlar smetasi va kalendar rejani ko'rib chiqish va kelishish;

mazkur shartnoma asosida, uning xarajatlar smetasiga mos ravishda loyihani moliyalashtirish to'g'risida qaror (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma) qabul qilish;

loyiha doirasida bajarilayotgan ishlarni va ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanayotganligini monitoring qilish, zarur hollarda joyiga chiqqan holda.

11. Ijrochining majburiyatlari:

kalendar rejaga muvofiq ishlarni bajarish va natijasini o'z muddatida Buyurtmachiga topshirish. Loyiha doirasida ijrochi tomonidan yaratilgan ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalari, davlat ilmiy-texnik loyihalar yakunlanganidan va (yoki) ular belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin tijoratlashtirilishi shart, fundamental va tajriba-konstruktorlik tadqiqotlar natijalari, shuningdek, gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasidagi loyihalar bundan mustasno;

loyiha doirasida yaratilgan tadqiqot natijalarini Web of Science va Scopusning ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda hamda boshqa nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilishini ta'minlash;

tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlarni olish;

bajarilgan ishlarda o'zining aybi bilan yo'l qo'yilgan, shartnomada nazarda tutilgan parametrlardan chekinishga olib kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni o'z kuchi bilan va o'z hisobidan bartaraf etish;

kutilayotgan natijalarni olish mumkin emasligi yoki ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, bu haqida Buyurtmachini besh ish kuni muddatda xabardor qilish;

shartnoma asosida topshirilgan natijalarga uchinchi shaxslarda alohida huquqlar yo'qligi haqida buyurtmachiga kafolat berish;

loyihani sifatli va samarali bajarish uchun zarur bo'lgan ashyolar, asbob-uskunalar, qurilmalar, ishlab chiqarish maydonlari bilan ta'minlash va boshqa zarur sharoitlarni yaratish;

shartnomada ko'zda tutilgan mablag'lar va tovar-moddiy boyliklar hisobini yuritish va ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash;

ilmiy-tadqiqot va moliyaviy hisobotlarni o'z vaqtida topshirilishini ta'minlash;

loyiha uchun ajratilgan mablag'larni sarflanishi yuzasidan choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni hisobot davridan keyingi oyning yigirma beshinchi sanasiga qadar "UzASBO" dasturiy majmuasi orqali elektron shaklda Moliyalashtiruvchiga taqdim etish;

Buyurtmachi tarafidan joyiga chiqqan holda loyihaning bajarilishi yuzasidan o'tkaziladigan monitoring uchun zarur sharoitlarni yaratib berish;

yuridik manzili va bank rekvizitlari o'zgarganda taraflarni 10 ish kun ichida xabardor qilish;

loyiha doirasida ajratilgan budjet mablag'larini xarajatlar smetasi asosida belgilangan tartibda va miqdorda maqsadli sarflanishini ta'minlash;

loyiha bo'yicha tayyorlangan hisobotlarning ishonchliligi va haqqoniyligi, avval bajarilmaganligi, ko'chirmachilik (plagiat)ka yo'l qo'yilmaganligi hamda tanlov mavzusi va shartlariga mosligiga javobgardir.

12. Loyiha rahbarining majburiyatlari:

shartnoma shartlarini va loyihani o'z muddatlarida sifatli va to'liq bajarish, moliyaviy mablag'lar va moddiy-texnik resurslarni maqsadli ishlatish;

shartnoma bo'yicha ishlarni to'liq hujjatlashtirish va o'z vaqtida ilmiy va moliyaviy hisobotlarni topshirish;

loyiha bo'yicha tayyorlangan hisobotlarning ishonchliligi va haqqoniyligi, avval bajarilmaganligi, ko'chirmachilik (plagiat)ka yo'l qo'yilmaganligi hamda tanlov mavzusi va shartlariga mosligiga javobgardir.

13. Moliyalashtiruvchining majburiyatlari:

Mazkur shartnoma bilan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan loyihani moliyalashtirish;

Buyurtmachining qarori (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma)ga asosan loyihani moliyalashtirishni to'xtatib turish va (yoki) to'xtatish.

IV. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

14. Mazkur shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarning natijasi, uning yakuniy hisobotlari Buyurtmachi tarafidan qabul qilib olinadi.

15. Ijrochi loyihani bajarish kalendar rejasiga asosan tayyorlangan yillik (oralik) ilmiy hisobotni loyiha boshlangan kundan boshlab bir yil (12 oy) o'tgandan so'ng keyingi oyning 15-sanasiga qadar, yakuniy ilmiy hisobotni esa loyiha tugagandan keyingi oyning 15-sanasiga qadar Buyurtmachiga topshiradi. Agar ilmiy hisobot ko'rsatilgan muddatda Buyurtmachiga topshirilmasa ajratilgan mablag'ning 5 foizi Buyurtmachi qarori (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma)ga binoan Moliyalashtiruvchi tomonidan ushlab qolinadi.

Buyurtmachining qarori asosida Moliyalashtiruvchi loyiha uchun ajratilgan mablag'ning 5 foizini moliyalashtiriladi.

16. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq choraklik, 6 oylik, 9 oylik va yillik moliyaviy hisobotlar Ijrochi tarafidan hisobot davridan keyingi oyning 10 sanasigacha topshiriladi.

17. Choraklik moliyaviy hisobot natijalari bo'yicha ajratilgan mablag'larning sarflanmay qolgan qismi Buyurtmachi tomonidan maqbullashtirilishi mumkin.

18. Ish bosqichlarini qabul qilish jarayonida ushbu shartnomaning kalendar rejasida ko'rsatilgan talablariga mos kelmasligi aniqlansa, Ijrochi belgilangan ishlar hajmini o'z hisobidan kelishilgan muddatda to'liq bajarishga majbur.

19. Agar ishni bajarish jarayonida salbiy natija olish holati yoki ishni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, Ijrochi ishni to'xtatishi va bu haqida bir hafta muddatda Buyurtmachini rasmiy xabardor qilishi zarur. Ushbu hollarda taraflar ishni keyinchalik davom ettirish maqsadga muvofiq yoki nomuvofiqligi to'g'risida qaror (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma) qabul qiladilar.

20. Ijrochi tarafidan loyiha Buyurtmachi bilan kelishilgan kalendar reja doirasida bajarilmaganligi aniqlansa, oraliq bosqich hujjatlari va hisobotlar belgilangan talablar darajasida rasmiylashtirilmasa hamda o'z muddatlarida topshirilmasa, bunday holatlarda Buyurtmachi qarori (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma) bilan Moliyalashtiruvchi tarafidan moliyalashtirish to'xtatiladi va shartnoma bekor qilinadi.

V. Shartnoma shartlarini buzganlik uchun taraflarning javobgarligi

21. Ijrochi va Loyiha rahbari mazkur shartnoma shartlarini bajarmaganligi va (yoki) tegishli darajada bajarmaganligi uchun, agar shartnomaning buzilishida o'zining aybi yo'qligini isbot qilmasa, Buyurtmachining loyiha doirasida moliyalashtirilgan mablag'ini Ijrochi va Loyiha rahbari birgalikda qoplashi shart.

22. Ijrochi tarafidan shartnoma shartlari bajarilmagan holatlarda ishlar bajarilmagan va shartnoma shartlari buzilgan deb hisoblanadi. Ushbu holatda Moliyalashtiruvchi Buyurtmachining qarori (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma)ga asosan moliyalashtirishni to'xtatadi.

23. Shartnoma shartlari bajarilmagan hollarda taraflar ushbu shartnoma va O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari asosida javobgardir.

VI. Korrupsiyaga qarshi kurash

24. Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bilan bog'liq barcha amaldagi qonunlar, qonunosti hujjatlar, shu jumladan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuniga rioya qilishni o'z zimmlariga oladilar.

25. Tomonlar ushbu shartnomani bajarish bilan bog'liq hech qanday korrupsiyaviy harakatlar yoki harakatsizlikni sodir etmaslikni tasdiqlaydi va kafolatlaydi.

26. Tomonlar korrupsiyaviy harakat yoki harakatsizlik haqida voqea/hodisa sodir etilgan kundan boshlab 5 ish kun ichida xabar berishi kerak.

27. Buyurtmachi korrupsiyaga qarshi bandlarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida mazkur shartnoma bilan bog'liq faoliyati bo'yicha audit o'tkazish huquqini o'zida saqlab qoladi.

28. Buyurtmachi korrupsiyaviy holatlar to'g'risida xabar bergan shaxslarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi va kafolatlaydi.

29. Mazkur bandlarga rioya qilmaslik yoki ularni to'la bajarmaslik bevosita shartnomani bekor bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

30. Tomonlar agar ulardan birining xatti-harakatlari orqali mazkur bo'limda ko'rsatib o'tilgan bandlardan birini buzish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli.

VII. Fors-major holatlari

31. Agar shartnoma majburiyatlari quyidagi holatlarning vujudga kelishi natijasida bajarilmagan bo'lsa, taraflarning birortasi ham o'ziga olgan majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi: suv bosish, yong'in, yer qimirlash va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek urush, harbiy harakatlar yoki shartnoma tuzilgandan keyin taraflarning nazoratidan tashqarida yengib bo'lmay kuch ta'sirida sodir bo'lgan holatlar. Bunda, ushbu shartnoma majburiyatlarini bajarish muddati bunday holatlarning harakatlanish davriga mos ravishda keyinga suriladi.

VIII. Boshqa shartlar

32. Mazkur shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha Ijrochi va loyiha rahbari shartnoma shartlarini bajarish yuzasidan Buyurtmachi oldida solidar tarzda javobgar hisoblanadilar.

33. Ijrochi va Loyiha rahbari mazkur loyiha doirasida ishlab chiqilgan ishlanmalar, chop etilgan maqolalar, monografiyalar, ommaviy-axborot vositalaridagi ma'lumotlarda ishlar Buyurtmachi tarafidan moliyalashtirilgan loyihalar doirasida bajarilganligini qayd etishlari shart.

34. Loyiha doirasida huquqiy muhofaza qilinishi zarur bo'lgan ilmiy natija olinsa Loyiha rahbari bir hafta muddatda Ijrochiga bu haqida yozma xabar berishi lozim. Ijrochi ikki hafta muddatda o'zining ilmiy-texnikaviy kengashida xabarni ko'rib chiqib, intellektual mulk obyektini muhofaza qilish to'g'risida qaror qabul qiladi va Buyurtmachiga bu haqda axborot beradi. Shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish Buyurtmachi bilan yozma ravishda oldindan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

35. Loyiha ijrochilari bilan tuziladigan mehnat shartnomasida qonunchilik hujjatlari hamda ushbu shartnoma shartlari asosida loyiha doirasida yaratiladigan intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilinishini ta'minlashga doir band kiritilishi lozim.

36. Loyiha doirasida yaratilgan intellektual mulk obyektlari uchinchi tomonga beriladigan bo'lsa, litsenzion kelishuv asosida berilishi va litsenzion kelishuvda texnologiya (ishlanma) muallif(lar)i, Ijrochi hamda uchinchi tomon o'rtasida foyda taqsimlanishi ko'rsatiladi.

37. Ushbu shartnoma bo'yicha loyihani bajarilishi uchun sotib olingan asbob-uskunalar, qurilmalar ish bajarilgandan so'ng Ijrochi balansida qoldiriladi. Moliya yilining oxirida har bir sotib olingan asbob-uskuna, qurilma va boshqalar bo'yicha moliyaviy xarajati ko'rsatilgan ro'yxat Buyurtmachiga taqdim etiladi.

38. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki bekor qilish taraflarning kelishuviga binoan belgilangan tartibda yozma ravishda amalga oshiriladi.

39. Ushbu shartnomani bajarilishi jarayonida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal qilinadi. O'zaro kelishuv ta'minlanmagan holda kelishmovchiliklar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi.

40. Taraflarning ushbu shartnomada nazarda tutilmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solinadi.

41. Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

42. Shartnoma bo'yicha loyihaning bajarilish muddati: 2024-yil 1-mayda boshlanadi va 2026-yil 30-aprelda yakunlanadi.

Mazkur shartnoma taraflar o'rtasida imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'ladi hamda taraflar o'z majburiyatlarini bajargunga qadar amalda bo'ladi.

43. Ushbu shartnoma shartnomaning har bir tarafi uchun teng yuridik kuchga ega bo'lgan 4 (to'rtta) asl nusxada tuzildi. 1-nusxa Buyurtmachiga, 2-nusxa Ijrochiga, 3-nusxa Loyiha rahbariga va 4-nusxa Moliyalashtiruvchiga taqdim etiladi.

IX. Taraflarning yuridik manzili va bank rekvizitlari

Buyurtmachi

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi**

100174, Toshkent sh., Olmazor t., Universitet
ko'chasi, 7-uy

Tel.: (71) 203-32-23

Sh/h: 400110860262807014301254001

O'z.R. Iqtisodiyot va moliya vazirligi

G'aznachilik xizmati qo'mitasi

H/r 23402 000 300 100 001 010

MB XKKM BB Toshkent sh.

STIR:201 122 919 MFO:00014

STIR:305 166 715

Direktor

Sh. Rajabbayev

Moliyalashtiruvchi

**Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni
qo'llab-quvvatlash jamg'armasi**

100174, Toshkent sh., Olmazor t., Universitet
ko'chasi, 7-uy

Tel.: (71) 203-17-00; (71) 203-32-23

sh/h: 302810860262737015401254002

O'z.R. Iqtisodiyot va moliya vazirligi

G'aznachilik xizmati qo'mitasi

H/r 23402 000 300 100 001 010

MB XKKM BB Toshkent sh.

STIR:201 122 919 MFO:00014

STIR:304 999 794

**Ijro etuvchi direktor
v.v.b.**

J. Tavakalov

Ijrochi

**Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar
institut**

111709, Toshkent vil., Chirchiq sh.,
Sportchilar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (71) 277-69-83; (71) 277-09-87

Sh/h: 400110860274197015100135001

O'z.R. Iqtisodiyot va moliya vazirligi

G'aznachilik xizmati qo'mitasi

H/r 23402000300100001010

MB XKKM BB Toshkent sh.

STIR: 201 122 919 MFO: 00014

STIR: 207 330 537

Direktor

M.Mirjamolov

Loyiha rahbari

Ishtayev Javlon Mavlonboyevich

Toshkent sh., Yashnobod tumani, Muxtor
Ashrafiy 1-tor ko'chasi 3-uy.

Pasport ma'lumotlari: 30.01.1986.

AD 5940937 (Toshkent viloyati IIB

tomonidan 29.01.2024 yilda berilgan)

JSHSHIR: 33001866770014

Tel.: (97) 711-15-71

E-mail: javlon-bek@mail.ru

Loyiha rahbari

J. Ishtayev

LOYIHANING XARAJATLAR SMETASI

T/R	Xarajatlar turi	Xarajatlar moddolari			Xarajatlar umumiy summasi	JAMI (yillar kesimida)				
		Bo'lim	Kichik bo'lim	Bob		1-yil*	2-yil*	3-yil*	4-yil*	5-yil*
	HAMMASI:				1 293 592	957 418	336 174	0	0	0
1	Mehnatga haq to'lash	41	11	100	489 269	244 634	244 635	0	0	0
2	Ijtimoiy soliq	41	21	100	122 317	61 159	61 158	0	0	0
3	Xizmat safarlari xarajatlari				76 985	46 604	30 381	0	0	0
3.1	Respublika hududida	42	11	000	46 604	46 604	0	0	0	0
3.2	Xorijiy davlatlarda	42	12	000	30 381	0	30 381	0	0	0
4	Kommunal xizmat xarajatlari				0	0	0	0	0	0
4.1	Elektroenergiya	42	21	000	0	0	0	0	0	0
4.2	Tabiiy gaz	42	22	000	0	0	0	0	0	0
4.3	Issiq suv va issiqlik energiyasi	42	23	000	0	0	0	0	0	0
4.4	Sovuq suv va oqova	42	24	000	0	0	0	0	0	0
5	Loyihani amalga oshirishga jalb etilgan boshqa tashkilotlarning tadqiqot ishlari uchun ijara to'lovlari (zarur hollarda)				0	0	0	0	0	0
5.1	Transport vositalari	42	44	100	0	0	0	0	0	0
5.2	Mebel va ofis jihozlari	42	44	910	0	0	0	0	0	0
5.3	Kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-video texnika vositalari	42	44	920	0	0	0	0	0	0
5.4	Boshqa mashina, jihoz va texnikalar	42	44	900	0	0	0	0	0	0
6	Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun materiallar, butlovchi qismlar va tovar-moddiy zahiralarni sotib olish xarajatlari				8 430	8 430	0	0	0	0
6.1	Tovar – moddiy zahiralalar	42	52	110	8 430	8 430	0	0	0	0
6.2	Qog'oz	42	52	120	0	0	0	0	0	0
6.3	Maxsus kiyim	42	52	200	0	0	0	0	0	0
6.4	Oziq-ovqat mahsulotlari	42	52	300	0	0	0	0	0	0
6.5	Dori-darmonlar va tibbiyotda foydalaniladigan vaksinalar	42	52	410	0	0	0	0	0	0
6.6	Vaksinalar va bakteriologik preparatlar	42	52	420	0	0	0	0	0	0
6.7	Yonilg'i va yoqilg'i-moylash materiallari	42	52	500	0	0	0	0	0	0
6.8	Ko'mir	42	52	600	0	0	0	0	0	0
7	Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va texnik vositalarni sotib olish xarajatlari				596 591	596 591	0	0	0	0
7.1	Transport vositalari (maxsus avtotransport vositalari)	43	54	100	0	0	0	0	0	0
7.2	Mebel va ofis jihozlari	43	54	910	0	0	0	0	0	0
7.3	Kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-video texnika vositalari	43	54	920	11 264	11 264	0	0	0	0
7.4	Kommunal xizmatlarni hisobga olish asboblari	43	54	930	0	0	0	0	0	0
7.5	O'quv-laboratoriya uskunolari	43	54	940	0	0	0	0	0	0
7.6	Boshqa mashina, jihoz va texnikalar	43	54	990	0	0	0	0	0	0
7.7	Yetishtiriladigan aktivlar	43	55	100	0	0	0	0	0	0
7.8	Nomoddiy aktivlar	43	55	200	0	0	0	0	0	0
7.9	Kutubxona fondi	43	55	300	0	0	0	0	0	0
7.10	Boshqa asosiy vositalar	43	55	900	585 327	585 327	0	0	0	0
8	Loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xarajatlar				0	0	0	0	0	0
8.1	O'qitish xarajatlari	42	91	000	0	0	0	0	0	0
8.2	Telefon, telegraf va pochta xizmatlari	42	92	100	0	0	0	0	0	0
8.3	Axborot va kommunikatsiya xizmatlari	42	92	200	0	0	0	0	0	0
8.4	Tovar va xizmatlarni sotib olish bo'yicha boshqa xarajatlar	42	99	990	0	0	0	0	0	0
8.5	Elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun zakalat to'lovi	48	21	140	0	0	0	0	0	0
8.6	Boshqa xarajatlar	48	21	190	0	0	0	0	0	0

*Loyihaning umumiy moliyalashtirish rejası har bir yil uchun oylar kesimida 1, 2-jadvallarda belgilangan miqdorlarda amalga oshiriladi.

*Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan indeksatsiya mablag'i ajratilsa mazkur ilovaga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

*Loyihaning tasdiqlangan yillik hajmi doirasida ijrochining taklifiga asosan xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritilishi mumkin (I va II guruh xarajatlari bundan mustasno).



Direktor

Sh. Rajabbayev



Direktor

M.Mirjamolov

Loyiha rahbari

J. Ishtayev

Loyihaning 1-yili uchun moliyalashtirish rejası

1-jadval

(ming, 0.5 mda)

T/R		Xarajatlar turi	Xarajatlar moddolari			Xarajatlar umumiy summasi	Shu jumladan, birinchi yil uchun oylar kesimida											
			Bo'lim	Kichik bo'lim	Bob		1-oy	2-oy	3-oy	4-oy	5-oy	6-oy	7-oy	8-oy	9-oy	10-oy	11-oy	12-oy
		HAMMASI:																
1		Mehnatga haq to'lash	41	11	100	957 418	677 107	25 482	25 482	25 482	25 482	25 483	25 483	25 483	25 483	25 483	25 484	25 484
2		Ijtimoiy soliq	41	21	100	244 634	20 386	20 386	20 386	20 386	20 386	20 386	20 386	20 386	20 386	20 386	20 387	20 387
3		Xizmat safarlari xarajatlari				61 159	5 096	5 096	5 096	5 096	5 096	5 097	5 097	5 097	5 097	5 097	5 097	5 097
3.1		Respublika hududida	42	11	000	46 604	46 604	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
3.2		Xorijiy davlatlarda	42	12	000	46 604												
4		Kommunal xizmat xarajatlari				0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
4.1		Elektroenergiya	42	21	000	0												
4.2		Tabiiy gaz	42	22	000	0												
4.3		Iссиқ suv va issiqlik energiyasi	42	23	000	0												
4.4		Sovuқ suv va oqova	42	24	000	0												
5		Loyihani amalga oshirishga jalb etilgan boshqa tashkilotlarning tadqiqot ishlari uchun ijara to'lovlari (zarur hollarda)				0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
5.1		Transport vositalari	42	44	100	0												
5.2		Mebel va ofis jihozlari	42	44	910	0												
5.3		Kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-video texnika vositalari	42	44	920	0												
5.4		Boshqa mashina, jihoz va texnikalar	42	44	900	0												
6		Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun materiallar, budlovchi qismlar va tovar-moddiy zahiralarni sotib olish xarajatlari				8 430	8 430	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
6.1		Tovar – moddiy zahiralar	42	52	110	8 430												
6.2		Qog'oz	42	52	120	0												
6.3		Maxsus kiyim	42	52	200	0												
6.4		Oziq-ovqat mahsulotlari	42	52	300	0												
6.5		Dori-darmonlar va tibbiyotda foydalaniladigan vaksinsinalar	42	52	410	0												
6.6		Vaksinalar va bakteriologik preparatlar	42	52	420	0												
6.7		Yonilg'i va yoqlig'i-movylash materiallari	42	52	500	0												
6.8		Ko'mir	42	52	600	0												
7		Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va texnik vositalarni sotib olish xarajatlari				596 591	596 591	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
7.1		Transport vositalari (maxsus aviotransport vositalari)	43	54	100	0												
7.2		Mebel va ofis jihozlari	43	54	910	0												
7.3		Kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-video texnika vositalari	43	54	920	11 264	11 264											
7.4		Kommunal xizmatlarni hisobga olish asboblari	43	54	930	0												
7.5		O'quv-laboratoriya uskunalari	43	54	940	0												
7.6		Boshqa mashina, jihoz va texnikalar	43	54	990	0												
7.7		Yetishtiriladigan aktivlar	43	55	100	0												
7.8		Nomoddiy aktivlar	43	55	200	0												
7.9		Kutubxona fondi	43	55	300	0												
10		Boshqa asosiy vositalar	43	55	900	585 327	585 327											
8		Loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xarajatlar				0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
8.1		O'qitish xarajatlari				0												
8.2		Telefon, telegraf va pochta xizmatlari	42	91	000	0												
8.3		Axborot va kommunikatsiya xizmatlari	42	92	100	0												
8.4		Tovar va xizmatlarni sotib olish bo'yicha boshqa xarajatlar	42	92	200	0												
8.5		Elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun zakalat to'lovi	42	99	990	0												
8.6		Boshqa xarajatlar	48	21	140	0												
			48	21	190	0												

(ming so'mda)

(ming so'mda)

T/R		Xarajatlar turi	Xarajatlar moddolari		Xarajatlar umumiy summasi	Shu jumladan, ikkinchi yil uchun oylar kesimida											
			Bo'lim	Kichik bo'lim		1-oy	2-oy	3-oy	4-oy	5-oy	6-oy	7-oy	8-oy	9-oy	10-oy	11-oy	12-oy
		HAMMASE:			336 174,0	55 863,0	25 482,0	25 482,0	25 482,0	25 482,0	25 482,0	25 483,0	25 483,0	25 483,0	25 484,0	25 484,0	25 484,0
1		Mehnatga haq to'lash	41	11	100	20 386	20 386	20 386	20 386	20 386	20 386	20 386	20 386	20 386	20 387	20 387	20 387
2		Ijtimoiy soliq	41	21	100	5 096	5 096	5 096	5 096	5 096	5 096	5 097	5 097	5 097	5 097	5 097	5 097
3		Xizmat saforatlari xarajatlari			30 381	30 381	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
3.1		Respublika hududida	42	11	000												
3.2		Xorijiy davlatlarda	42	12	000	30 381	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
4		Kommunal xizmat xarajatlari			0												
4.1		Elektroenergiya	42	21	000	0											
4.2		Tabiiy gaz	42	22	000	0											
4.3		Issiқ suv va issiқlik energiyasi	42	23	000	0											
4.4		Sovuқ suv va oqova	42	24	000	0											
5		Loyihani amalga oshirishga jalb etilgan boshqa tashkilotlarning tadqiqot ishlari uchun ijara to'lovlari (zarur hollarda)			0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
5.1		Transport vositalari	42	44	100	0											
5.2		Mebel va ofis jihozlari	42	44	910	0											
5.3		Kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-video texnika vositalari	42	44	920	0											
5.4		Boshqa mashina, jihoz va texnikalar	42	44	900	0											
6		Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun materiallar, buylovchi qismlar va tovar-moddiy zahiralarni sotib olish xarajatlari			0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
6.1		Tovar – moddiy zahiralar	42	52	110	0											
6.2		Qog'oz	42	52	120	0											
6.3		Maxsus kiyim	42	52	200	0											
6.4		Oziq-ovqat mahsulotlari	42	52	300	0											
6.5		Dori-darmonlar va tibbiyotda foydalaniladigan vaktsinalar	42	52	410	0											
6.6		Vaktsinalar va bakteriologik pereparatlar	42	52	420	0											
6.7		Yonilg'i va yoqilg'i-moylash materiallari	42	52	500	0											
6.8		Ko'mir	42	52	600	0											
7		Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va texnik vositalarni sotib olish xarajatlari			0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
7.1		Transport vositalari (maxsus aviotransport vositalari)	43	54	100	0											
7.2		Mebel va ofis jihozlari	43	54	910	0											
7.3		Kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-video texnika vositalari	43	54	920	0											
7.4		Kommunal xizmatlarni hisobga olish asboblari	43	54	930	0											
7.5		O'quv-laboratoriya uskunalar	43	54	940	0											
7.6		Boshqa mashina, jihoz va texnikalar	43	54	990	0											
7.7		Yetishiriladigan aktivlar	43	55	100	0											
7.8		Nonoddiy aktivlar	43	55	200	0											
7.9		Kutubxona fondi	43	55	300	0											
7.10		Boshqa asosiy vositalar	43	55	900	0											
8		Loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xarajatlar			0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
8.1		O'qitish xarajatlari	42	91	000	0											
8.2		Telefon, telegraf va pochta xizmatlari	42	92	100	0											
8.3		Axborot va kommunikatsiya xizmatlari	42	92	200	0											
8.4		Tovar va xizmatlarni sotib olish bo'yicha boshqa xarajatlar	42	99	990	0											
8.5		Elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun zakalat to'lovi	48	21	140	0											
8.6		Boshqa xarajatlar	48	21	190	0											

2024-yil 1 - may dagi
ALM-202403110250-son shartnomaga

1-ilova

**Shartnomaga muvofiq bajariladigan ishlarning
KALENDAR REJASI**

T/r	Amalga oshiriladigan ishlar* (Loyihaning har bir yili bo'yicha oylar kesimida)	Amalga oshirish/hisobotni taqdim etish muddati**	Taqdim etiladigan hisobot shakli***
Birinchi yil			
1.	Respublika bo'yicha hududlarning shart-sharoitlari inobatga olgan holda sport ta'lim muassasalarining sportchilaridan psixologik testlar elektron platformasi va SPORK moslamasini ishlab chiqish. Yuqoridagi tahlillar natijasi asosida loyiha rejalari va ketma ketligini ishlab chiqish. Xalqaro (Scopus/WoSdan tashqari) jurnallarda 2 ta maqola chop etish.	May	
2.	Respublika bo'yicha sportchilardan psixologik testlar va SPORK moslamasida portlash qobiliyat ko'rsatkichlarini Tahlil qilish. Umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida mahalliy jurnallarda 4 ta maqola chop etish.	Iyun	
3.	Ilmiy tadqiqotlar natijalariga qarab sportchilarning musobaqalarga psixologik tayyorgarligi bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqish. Yosh sportchilarni psixodiagnostik tekshiruvdan so'ng maqbul bo'lgan sport turlariga saralash dasturini ishlab chiqish.	Avgust-Oktabr	
4.	Sportchilarning individual psixologik ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida respublika miqyosida yuqori toifali sportchilarning psixologik pasportlarini shakllantirish.	Noyabr-Yanvar	
5.	Sportchilarning individual ko'rsatkichlari laboratoriya sharoitida aniqlash, trenerlar uchun mashg'ulot dasturiga korrektsiyalar kiritish.	Fevral-Mart	
6.	Sport turlarida mashg'ulotning turli davr va bosqichlarida psixologik imkoniyatlari aniqlash asosida sportchilarning psixologik pasporti ishlab chiqish.	Aprel	
7.	Oraliq (yillik) hisobot taqdim etish	Loyihaning birinchi yili yakunlangandan so'ng keyingi yilning 15 kunligida	Oraliq hisobot
Ikkinchi yil			
1	Sportchilarni musobaqalarga psixologik tayyorlashda startoldi holatlari bo'yicha korrektsiyalar majmuasini ishlab chiqish.	May-Iyul	
2	Sportchilarni musobaqalarga psixologik tayyorlash bo'yicha sportchilarning ko'rsatkichlari orasidagi farqlarni matematik-statistik jihatdan qayta ishlab	Avgust-Oktabr	

	chiqish.		
3	Sportchilarning psixodiagnostik taxlili orqali sport turlariga saralash dasturi ishlab chiqiladi. Olingan natijalar asosida Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan olmiy jurnallarda – 3 ta, OAK ro'yxatidagi mahalliy ilmiy jurnallarda – 20 ta ilmiy maqolalar chop etish. Loyiha natijalari asosida 8 ta magistlik, 2 ta falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi himoyasini amalga oshirish.	Noyabr-Yanvar	
4	Musobaqa faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi sportchining sport turlari bo'yicha psixologik model tavsiflari yaratiladi. Testlar batareyasi taklif etiladi. Loyiha doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari uchun Intellektual mulk obyektlari uchun 2 ta patentga ariza topshirish.	Fevral-Aprel	
5	Yakuniy hisobot taqdim etish	Loyihaning yakunlanish yilida yakunlangan vaqtdan so'ng 15 kunlik muddatda	Yakuniy hisobot (loyiha yakunlangan bo'lsa)



Sh. Rajabbayev



M. Mirjamolov

J. Ishtayev



**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI DIREKTORINING BUYRUG'I**

2024 yil "1" *may*

1 I/CH-sonli

ALM-202403110250-sonli innovatsion
loyiha xodimlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan innovatsiyalar vazirligi tomonidan Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutiga ajratilgan ALM-202403110250-sonli "Sportchilarni psixologik pasportini ishlab chiqish" mavzusidagi innovatsion loyiha bo'yicha ish faoliyatini samarali tashkil ettirish maqsadida.

BUYURAMAN:

1. ALM-202403110250-sonli "Sportchilarni psixologik pasportini ishlab chiqish" mavzusidagi innovatsion loyihaning 1-yilgi shtat jadvali va xodimlarining shaxsiy arizasiga muvofiq:

1.1. Ishtayev Javlon Mavlonboyevich - 2024-yilning 1-maydan boshlab, ichki o'rindoshlik asosida 0,5 shtat birligi loyiha rahbari lavozimiga o'tkazilsin. Oylik maoshi: 4 916 625 so'm etib belgilansin p.f.d., (DSc), (dots).

1.2. Eldor Abdurasulovich O'rinboyev - ichki o'rindoshlik asosida 0,25 shtat birligi yetakchi ilmiy xodim lavozimiga may oyi uchun. Oylik maoshi: 1 803 375 so'm etib belgilansin (p.f.b.f.d., dots.).

1.3. Gapparov Zoxid Gapparovich - 2024-yilning 1-maydan boshlab, ichki o'rindoshlik asosida 0,25 shtat birligi katta ilmiy xodim lavozimiga ishlashga ruxsat berilsin va mehnat shartnomasi tuzilsin. Oylik maoshi: 1 843 800 so'm etib belgilansin (p.f.b.f.d., dots).

1.4. Mirjamolov Mexriddin Xayriddinovich - 2024-yilning 1-maydan boshlab, ichki o'rindoshlik asosida 0,25 shtat birligi katta ilmiy xodim lavozimiga ishlashga ruxsat berilsin va mehnat shartnomasi tuzilsin. Oylik maoshi: 1 843 800 so'm etib belgilansin p.f.d., (DSc), (dots).

1.5. Ishimov Baxodir Amirqulovich - 2024-yilning 1-maydan boshlab, ichki o'rindoshlik asosida 0,25 shtat birligi katta ilmiy xodim lavozimiga ishlashga ruxsat berilsin va mehnat shartnomasi tuzilsin. Oylik maoshi: 1 735 650 so'm etib belgilansin (p.f.b.f.d., dots).

1.6. Xasanov Otabek Xamidjanovich - 2024-yilning 1-maydan boshlab, ichki o'rindoshlik asosida 0,25 shtat birligi kichik ilmiy xodim lavozimiga ishlashga ruxsat berilsin va mehnat shartnomasi tuzilsin. Oylik maoshi: 1 627 762 so'm etib belgilansin (p.f.b.f.d., dots).

1.7. Azizov Mirzohid Mirzolim o'g'li - 2024-yilning 1-maydan boshlab, ichki o'rindoshlik asosida 0,25 shtat birligi kichik ilmiy xodim lavozimiga ishlashga ruxsat berilsin va mehnat shartnomasi tuzilsin. Oylik maoshi: 1 627 762 so'm etib belgilansin (p.f.b.f.d., dots).

1.8. Rahmatova Nargiza Ne'matulla qizi - 2024-yilning 1-maydan boshlab, ichki o'rindoshlik asosida 0,5 shtat birligi texnik xodim lavozimiga ishlashga ruxsat berilsin va mehnat shartnomasi tuzilsin. Oylik maoshi: 1 453 200 so'm etib belgilansin.

1.9. Matnazorav Xayrulla Yuldashevich 2024-yilning 1-maydan boshlab, ichki o'rindoshlik asosida 0,5 shtat birligi texnik xodim lavozimiga ishlashga ruxsat berilsin va mehnat shartnomasi tuzilsin. Oylik maoshi: 726 600 so'm etib belgilansin.

1.10. Raxmonov Eldor Tolibjonovich 2024-yilning 1-maydan boshlab, ichki o'rindoshlik asosida 0,5 shtat birligi texnik xodim lavozimiga ishlashga ruxsat berilsin va mehnat shartnomasi tuzilsin. Oylik maoshi: 726 600 so'm etib belgilansin.

1.11. Xolmurodov Laziz Zarifboyevich - 2024-yilning 1-maydan boshlab, ichki o'rindoshlik asosida 0,25 shtat birligi texnik xodim lavozimiga ishlashga ruxsat berilsin va mehnat shartnomasi tuzilsin. Oylik maoshi: 363 300 so'm etib belgilansin.

1.12. Abdullayev Bobur Baxtiyorovich - 2024-yilning 1-maydan boshlab, ichki o'rindoshlik asosida 0,5 shtat birligi texnik xodim lavozimiga ishlashga ruxsat berilsin va mehnat shartnomasi tuzilsin. Oylik maoshi: 726 600 so'm etib belgilansin.

1.13. Yuliyev Nuriddin Jumanazarovich - 2024-yilning 1-maydan boshlab jamoatchilik asosida yetakchi ilmiy xodim lavozimiga ishlashga ruxsat berilsin.

1.14. Turdiboyev Isomiddin Husnutovich - 2024-yilning 1-maydan boshlab jamoatchilik asosida yetakchi ilmiy xodim lavozimiga ishlashga ruxsat berilsin.

Asos: ALM-202403110250-sonli "Sport ta'lim muassasalarida seleksiya, saralash, bashorat qilish va oliy sport yutuqlarini rivojlanish monitoringini joriy qilish uchun raqamli texnologiyalarni yaratish" mavzusidagi maqsadli loyihaga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan tuzilgan shartnoma, hamda shaxsiy arizalar.

**Jismoniy tarbiya va sport ilmiy
tadqiqotlar instituti direktori:**



M.X.Mirjamolov